

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

3. <https://olympic.uz/oz/news/555>

MILLIY IQTISODIYOTDA KREATIV IQTISODIYOTNING XALQARO REYTINGLARDAGI O‘RNI

Abduvaliyev Abdulaziz Abduvalievich

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti,

Direktor o‘rinbosari, i.f.n., k.i.x.

abduvaliev06051981@gmail.com

XX asrning ikkinchi yarmidan ko‘plab mamlakatlarda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish milliy iqtisodiyotning muhim yo‘nalishi sifatida belgilandi va so‘nggi o‘n yilliklarda kreativ iqtisodiyotning mezon ko‘rsatkichlarini belgilash bo‘yicha ko‘plab ilmiy va amaliy ishlar bajarilgan bo‘lishiga qaramasdan har bir mamlakatda iqtisodiy rivojlanish holatidan kelib chiqqan holda o‘ziga hos mezonlar shakillantirilgan.

O‘zbekistonda ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar singari milliy iqtisodiyotning ichki imkoniyatlari va salohiyatlarini to‘liq safarbard qilish, iqtisodiyotning qamrovini yanada kengaytirish, yangi yo‘nalishlar va sohalarni rivojlantirishda islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda milliy iqtisodiyotda tobora rivojlanayotgan shunday yo‘nalishlarda biri bu kreativ iqtisodiyot hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotda kreativ iqtisodiyotning ahamiyatini va ulushini yanada oshirish hamda uning turli yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun, 2024 yil 3 oktyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Kreativ iqtisodiyot to‘g‘risida” O‘RQ-970-sonli qonuni hisoblanadi. Mazkur qonun bilan kreativ iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan, ular jumlasidan, kreativ industriya, kreativ industriya sub’ektlari, kreativ iqtisodiyot, kreativ mahsulot va bshq. Shuningdek, qonun bilan kreativ industriya sohasidagi faoliyat yo‘nalishlari quyidagilar belgilangan: adabiy ijod; amaliy sanhat va hunarmandchilik; arxitektura, loyihalashtirish va urbanistika; audiovizual san’at; ijrochilik san’ati; kontsert-tomosha faoliyatini va ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish; moda va dizayn san’ati; muzeylar, badiiy galereyalar (ko‘rgazmalar), axborot-kutubxona faoliyati; nashriyot va matbaa sohasidagi ijodiy faoliyat; ommaviy axborot vositalari sohasidagi va Internet jahon axborot tarmog‘i orqali uzatish yo‘li bilan amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat; prodyuserlik faoliyat; raqamli texnologiyalar sohasidagi ijodiy faoliyat; reklama sohasidagi ijodiy faoliyat; san’at ashyolari va madaniy meros ob’ektlarini asrashga doir faoliyat; tasviriy san’at.

Belgilash lozimki, jahonda mamlakatlarda kreativ iqtisodiyotini rivojlanishini tahlil qiluvchi va reyting ko‘rinishida baholovchi mezonlardan biri bu Global innovatsiyalar indeksi (GII) hisoblanadi.


GII 2007 yildan boshlab jahonda tan olingan, mamlakatlarning innovatsion rivojlanish darajasiga baho beradigan xalqaro reyting yaratilgan davridan boshlab muntazam ravishda yangilanib va takomillashib bordi. Natijada, barqaror rivojlanish manfaatlarida BMTning Bosh Assambleyasining ilm-fan, texnologiyalar va innovatsiyalar bo‘yicha rezolyutsiyasida, GII metodologiyasi innovatsiyalarni o‘lchashdagi eng maqbul metodologiya sifatida belgilandi[11].

Global innovatsiya indeksi (Global Innovation Index – GII) 2007 yildan tayyorlanadi va jahonda innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi bo‘yicha taqqoslama tahlil instrumenti vazifasini bajaradi.

GII innovatsiyalarni baholash, innovatsion rivojlanishga ko‘maklashuvchi maqsadli siyosatni belgilash, ilg‘or tajribalarni almashishga mo‘ljallangan. GIIning har yillik reytingi, avvalgi yillardagi reytingga asoslanadi, bu esa mamlakatlar tomonidan innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini kuzatish va baholash imkoniyatini beradi. Xususan, 2024 yilning GII nashri 133ta mamlakatlarning innovatsiyalar ekotizimi ko‘rsatkchilarini aks ettiradi va eng so‘nggi global innovatsiyalar tendentsiyalarini yoritadi[12].


Har bir mamlakatning mazkur reytingda munosib o‘rin egallashi avvalo, mamlakatda shakllantirilayotgan innovatsion iqtisodiyotga baho berilishi va jahon hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilishi bilan ifodalanadi. Zero, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, global bozordagi o‘rni, bevosita mamlakatning sanoatlashuv jamiyatidan bilimlar jamiyatiga o‘tishga va eng asosiysi, ilm-fanning iqtisodiyotdagi rolini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda kreativ iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlarini inobatga olgan xolda innovatsion iqtisodiyotga ta’sir qiluvchi turli omillar va aloqadorliklarni aniqlash, ularni baholash hamda tahlil qilish talab qilinadi.



1-rasm. 2012-2025 yillarda GIIda O‘zbekistonning kreativ natijalar bo‘yicha reytingi[14]

Belgilash lozimki, GII reytingida “Kreativ natijalar” indeksi 2009 yildan ma’lumotlari keltiriladi, O‘zbekistonning mazkur ko‘rsatkichi 2012 yildan boshlab yuritiladi. 2025 yilda 2012 yilga nisbatan O‘zbekistonning kreativ natijalar indeksi reytingi 34 pog‘onaga o‘shishi kuzatilgan. O‘z navbatida mazkur ko‘rsatkichning MDH mamlakatlari miqiyosida ham tahlili mavjud bo‘lib GII reytingida ularning barchasining ishtiroki kuzatiladi (2-rasm).



2-rasm. 2012-2025 yillarda MDH mamlakatlarining GIIda kreativ natijalar indeksi reytinglari dinamikasi[14]

2-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2012-2025 yillarda MDH mamlakatlarining barchasida GII reytingida kreativ natijalar bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan va barcha mamlakatlarga nisbatan birgina Ozarbayjondan tahlil davrida salbiy ko‘rsatkichlar tendentsiyasi kuzatilgan.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko‘ra tahlil davrida GII reytingida O‘zbekistonning kreativ natijalar indeksi bo‘yicha rivojlanish imkoniyatlari yanada keng bo‘lishi mumkin agarda uning uslubiyoti takomillashtirilsa va amaliyotda qo‘llanilsa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyulda “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash” PF-165-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O‘zbekiston-2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni.
4. The Global Innovation Index 2012. Stronger Innovation Linkages for Global Growth. ‘.XIX.
5. The Global Innovation Index 2013. The Local Dynamics of Innovation. R.XXI.
6. The Global Innovation Index 2014. The Human Factor in Innovation. R.XXV.
7. The Global Innovation Index 2015. Effective Innovation ‘olicies for Develo‘ment. R.XXI.

8. The Global Innovation Index 2020. Who Will Finance Innovation? ‘.XXXIII.
9. The Global Innovation Index 2021. Tracking Innovation through the COVID-19 Crisis. 14 th Edition. R.4-5.
10. Global Innovation Index 2022. What is the future of innovation-driven growth? R.20.
11. Global Innovation Index 2023. Innovation in the face of uncertainty 16th Edition. R.20-63.
12. Global Innovation Index 2024. Unlocking the ‘romise of Social Enter’renuershi’. R.18-19.
13. Global Innovation Index 2025. Innovation at a Crossroads / 18th Edition. WI’O. 2025.
14. GII rasmiy ma’lumotlari tahlili asosida muallif tomonidan ishlangan.

VALIDITY OF NATIONAL INDICATORS IN THE FIELD OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Abduvaliyev Abduqodir

Webster University in Tashkent, bachelor's degree student

Nayimov Otabek

Webster University in Tashkent, Professor of Diplomacy science

In the New Uzbekistan, the recognition by the international community of the profound structural socio-economic reforms being implemented to ensure the free and prosperous life of the country’s population indicates the high effectiveness of these reforms. In particular, along with other countries of the world, Uzbekistan also joined the United Nations (UN) General Assembly’s Sustainable Development Summit held in September 2015, adopting the Global Agenda for Sustainable Development Goals (SDGs) up to 2030 – a clear confirmation of this commitment.

In Uzbekistan, wide-ranging reforms are being implemented to actively promote the Sustainable Development Goals (SDGs) within national socio-economic processes. The foundation of these reforms is formed by existing regulatory and legal documents. In particular, on February 21, 2022, the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan adopted Resolution No. 83 “On additional measures to accelerate the implementation of national goals and objectives in the field of sustainable development for the period up to 2030.” In accordance with this resolution, 16 goals and 126 targets of the SDGs, deemed relevant for Uzbekistan, were approved for implementation up to 2030.

The formation of national SDG indicators serves to identify socio-economic changes in society, assess and monitor them using statistical methods, and study the needs and demands of the population. In particular, these indicators are used to identify socially vulnerable groups of the population, reduce poverty, create decent new jobs for employable individuals and youth, and develop state programs aimed